

SAYLOV HUQUQI VA DEMOKRATIK JARAYONLAR KAFOLATLARI

Nomonjonov Mashrabjon Fyrqatjon o'g'li

Andijon shaxar

Yuridik texnikum

Yuridik xizmat 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17999263>

Annotatsiya. O'zbekistob Respublikasining fuqarolari davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqiga egadirlar. Har bir saylovchining huquqi qonun bilan kafolatlanadi.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, demokratik, huquq, saylov, Oliy Majlis, kengash.

Kirish: Saylov huquqi har bir mustaqil va demokratik 1 davlatda konstitutsiya va saylov to'g'risidagi maxsus qonunlar bilan belgilanadi. Bu huquq aslida: davlat boshlig'i, vakillik organlari va boshqani saylash tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar yig'indisidir. Xo'sh bu huquqiy jarayonlar bizning davlatda qay darajada kafolatlangan?

O'zbekiston Raspublikasida Saylov huquqi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining saylovi to'g'risida" (1991-yil, 18 noyabr), "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida" (yangi taxriri, 2001-yil 30 avgust), "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to'g'risida" (yangi taxriri, 2003-yil 29 avgust), "Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to'g'risida" (1994-yil 5 may), "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" (1999-yil 14 aprel), "Fuqorolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida" (1994-yil 5 may), "O'zbekiston Respublikasida deputatni chakirib olish tartibi to'g'risida"gi (1996-yil 26 aprel) qonunlar va boshqa hujjatlarda o'z ifodasini topgan; 2) Fuqaroning saylovda ovoz berishda ishtirok etish, saylash huquqi (faol Saylov huquqi) va saylov asosida tashkil etiladigan davlat hokimiyati va fuqarolarning o'zini uzi boshqarish organlariga saylanish huquqi (passiv saylov huquqi). O'zbekistonda fuqarolarning faol saylov huquqi umumiy, teng, to'g'ridan to'g'ri va yashirin ovoz berish prinsiplari asosida amalga oshirilishi belgilangan. O'zbekistonda saylash huquqiga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 117-moddasi 2-bandiga binoan, 18 yoshga yetgan barcha O'zbekiston fuqarolari egadirlar.

Bu umumiy ovoz berish huquqi hisoblanadi.

Teng saylov huquqida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining jinsi, irqiy va milliy mansubligi, tili, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqei, ma'lumoti, mashg'ulotining turi va xususiyatidan qat'i nazar, teng ovoz berishda ishtirok etishi tushuniladi. To'g'ridan to'g'risida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylovda shaxsan o'zi ishtirok etib, biron bir shaxsning ko'rsatmasisiz o'z xohish irodasini ifoda etib ovoz berishi ta'minlanadi.

1. Demokratiya - (yunoncha –xalq hokimiyati, tenglik.

Yashirin ovoz berish Saylov huquqida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining saylovda ovoz berayotganda boshqa biron bir shaxsning ishtirokisiz o'z xohishini yashirin bildirish imkoniyati ta'minlanishi tushuniladi.

O'zbekiston fuqarolarining passiv Saylov huquqi quyidagicha belgilangan: fuqarolar xalq deputatlari mahalliy Kengashi deputatligiga saylanish uchun 21 yoshga, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga va Senatga saylanish uchun

Asosiy qisim: 25 yoshga, respublika Prezidentligiga saylanish uchun esa 35 yoshga yetgan bo'lishi kerak. Prezident bo'lib saylanish uchun nomzod saylovga kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashagan bo'lishi va davlat tilini yaxshi bilishi, Oliy Majlisning quyi va yuqori palatalariga deputatlikka saylanish uchun kamida so'nggi 5 yilda O'zbekistonda doimiy yashagan, jinoyat qonunchiligi bo'yicha oldin og'ir jinoyat sodir etib sudlanmagan bo'lishi kerak. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining raisligi (oqsoqol)ga tavsiya etilayotgan shaxs, qoida tariqasida, oliy ma'lumotli bo'lishi, tashkilotchilik qobiliyatiga, rahbar lavozimida ish tajribasiga, aholi o'rtasida hurmat va obro'-e'tiborga ega bo'lmog'i zarur.

Davlatimiz rahbari uzoqni ko'zlab yuritayotgan oqilona siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri O'zbekiston fuqarolarining qayerda yashab turganidan qat'i nazar, davlat himoyasida bo'lishi, huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan.

2019-yildagi saylovlarda xorijda istiqomat qilib turgan saylov yoshidagi barcha vatandoshlarimiz uchun ilk bor ovoz berish imkoniyati yaratilgani ana shunday yuksak e'tiborning amaldagi ifodasi bo'ldi. Ta'kidlash o'rinliki, avvallari bunday siyosiy tadbirlarda faqat konsullik vakolatxonalaridan rasman ro'yxatdan o'tgan o'zbekistonliklar o'zlarining konstitutsiyaviy huquqlaridan foydalangan. O'tgan saylovda esa O'zbekistonning 38 mamlakatda tashkil etilgan 55 saylov uchastkasida chet elda vaqtincha yoki doimiy yashayotgan 112 411 nafar saylovchimiz ovoz berdi. Fuqarolarimiz xorijda zich yashaydigan joylarda ko'chma saylov qutlari orqali 89 807 nafar saylovchi muddatidan oldin ovoz berishi tashkil qilindi.

Saylov kodeksining chet davlatlarda istiqomat qilib turgan O'zbekiston fuqarolarini diplomatik vakolatxonalarning konsullik hisobida bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'i nazar, saylovchilar ro'yxatiga kiritish tartibi, xorijiy mamlakatlarda saylovchilar yashayotgan yoki ishlayotgan joyida ko'chma qutilar orqali ovoz berishning huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Endilikda O'zbekistonning chet mamlakatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchastkalarida saylovchilarning ro'yxati mazkur muassasalar boshliqlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida tuzilishi belgilab qo'yildi.

Tuzilgan uchastka saylov komissiyalari chet davlatlarda yashab turgan fuqarolarni saylovchilar ro'yxati bilan tanishish usuli, joyi va vaqti to'g'risida xabardor qiladi.

Xorijda yashab turgan fuqarolar o'zlarini saylovchilar ro'yxatiga kiritish to'g'risida saylovdan 15 kun oldin yozma shaklda O'zbekiston Respublikasining diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan uchastka saylov komissiyalariga yoki Tashqi ishlar vazirligining rasmiy veb-sayti orqali elektron shaklda murojaat qilishi mumkin.

O'zbekistonning diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan uchastka saylov komissiyalari chet davlatlarda yashab turgan fuqarolarning ularni saylovchilar ro'yxatiga kiritish to'g'risidagi murojaatida ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlarni tekshiradi va fuqaroni saylovchilar ro'yxatiga kiritish haqidagi masalani hal qiladi. Saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolar haqidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga taqdim etadi.

Tashqi ishlar vazirligi saylovchilar ro'yxatiga kiritilgan fuqarolar haqidagi ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashtirish markaziga Saylovchilarning yagona elektron ro'yxatiga tegishli tuzatishlar kiritish uchun taqdim etadi.

O'zbekistonning chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida tuzilgan saylov uchastkalarida ovoz berish saylov kuni ushbu saylov uchastkalari joylashgan

yerdagi mahalliy vaqt bilan soat 8.00 dan 20.00 gacha o'tkazilishining Saylov kodeksida aniq belgilab qo'yilishi ham xorijda yashab turgan saylovchilar uchun yaratilgan yana bir qulaylikdir.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezident Islom KarimovOliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ta'kidlaganidek, «ilk borikki palatali parlamentga bo'lib o'tgan saylovlar O'zbekistonning yangi tarixida alohida, g'oyat muhim o'rin egalladi». Zero, demokratiyaning eng ta'sirchan mexanizmi ham saylovlardir. Demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan. Aslida ham, saylov – demokratiya degani, demokratiya –bu saylov, demakdir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi yig'ilishida davlatimiz rahbari uqtirganidek, deputat degan yuksak ishonchga sazovorhar qaysiinson avvalo o'zi uchun ovoz bergan odamlar haqida o'ylashi ham demokratiyaning yana bir belgi-alomati hisoblanadi. I.Karimov e'tirof etganidek, «Fuqarolarimiz saylovlarga mamlakatimiz hayotidagi eng muhim, jamiyatimizningbarcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatiga, demakki, har bir saylovchi taqdiriga ta'sir ko'rsatadigan siyosiy voqea sifatida yondashdilar.

Saylovlar bevosita jamiyatning siyosiy tizimini aks ettiradi va o'z tomonidan unga ta'sir ko'rsatadi. Ularning tashkil etilishi va ovoz berishning yakunlarini aniqlash tartibiga tegishli barcha jarayonlar siyosiy partiyalar bilan yaqindan bog'liqdir. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Aynan saylov paytida partiyalar o'zining asosiy va ustuvor fikr-qarashlarini, hayotni qanday yaxshilash, islohotlarni qanday amalga oshirish, O'zbekiston deb atalmish mustaqil davlatning ertangi hayotini qanday barpo etish borasidagi g'oyalarini ilgari suradi”.

Saylovlar fuqarolarga hokimiyat uchun kurashayotgan siyosiy partiyalarning dasturlarini haqiqiy mazmun-mohiyatini anglashga imkoniyat beradi. Faqatgina saylovlar orqali xalqning ko'pchiligining irodasi aniqlanadi, uning asosida esa demokratik hokimiyat yaratiladi.

Erkin saylovlarni o'tkazish jarayonida qonuniylik, tenglik kabi bir qator umumiy huquqiy tamoyillarga og'ishmasdan amal qilinishi ularni muvaffaqiyatli amalga oshirishga va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning e'tiroficha, «demokratiya va saylov tushunchalari doimo yonma-yon yuradi, ular o'zaro birlashib ketgan.

Saylov – demokratiya degani. Demokratiya –bu saylov degani». Darhaqiqat, saylovsiz demokratiyani, demokratiyasiz saylovni tasavvur qilish qiyin. Demokratiya saylov asosida, erkin fikr mushtarakligida, siyosiy plyuralizm mavjudligida namoyon bo'ladi. Proporsional saylov tizimi ovoz berish natijalarini aniqlashning birmuncha murakkab tartibi bo'lib, bunda mandatlar o'z nomzodlarini vakillik organlariga qo'ygan siyosiy partiyalar va boshqa ommaviy harakatlar o'rtasida ular tomonidan olgan ovozlarning soniga mos ravishda taqsimlanadi. Proporsional saylov tizimida katta-katta saylov okruglari tuzilib, ularda har bir partiya o'z vakillarining ro'yxatini ilgari suradi, saylovchilar esa tegishli partiyalar yoki ommaviy harakatlar tomonidan ko'rsatilgan vakillarning ruyxati uchun ovoz beradi. Ovoz berish natijalarini aniqlash uchun saylov mezoni (yoki kvota), ya'ni bir deputatlik mandatini olish uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdori (odatda, kamida 4—5% qilib) o'rnatiladi. Bunda, shartga ko'ra, muayyan jamoat birlashmalarining nomzodlari ana shu belgilangan ovozlarni olgandan keyingina mandatlarini taqsimlashda qatnashadi. Avvalo saylovchilar bergan ovozlar miqdori deputatlik o'rinlarining soniga bo'linadi. Shunda bitta mandat doirasidagi ovozlar soni ma'lum bo'ladi. Keyin har bir partiya olgan ovozlar alohida-alohida hisoblab chiqiladi. Bu miqdor deputatning bir mandati uchun zarur bo'lgan ovozlar miqdoriga bo'linadi. Shunda mazkur siyosiy partiya yoki ommaviy harakatga berilgan deputatlik o'rinlari soni kelib chiqadi. Bunday tizimda saylovchi amalda nomzod uchun emas, balki siyosiy partiya uchun ovoz beradi.

Saylovchilarning ovozi belgilangan me'yor doirasida va mutanosib ravishda deputatlar mandatlari sonini keltirib chiqaradi. Bu o'rinlar partiya rahbar organlari tomonidan partiyaviy ro'yxatning bosh qismidan joy olgan nomzodlarga beriladi. Proporsional saylov tizimi Isroil, Vengriya, Avstriya, Daniya, Ispaniya, Polsha va boshqa mamlakatlarda mavjud.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida saylov huquqi va demokratik jarayonlar kafolatlari Konstitutsiya, Saylov kodeksi va xalqaro standartlar asosida ta'minlanadi, bu fuqarolarga erkin saylash va saylanish imkoniyatini beradi. Konstitutsiyaviy asoslar O'zbekiston Konstitutsiyasining 117-128-moddalari fuqarolarga davlat hokimiyati vakillik organlariga saylash va saylanish huquqini kafolatlaydi, har bir saylovchi bir ovozga ega bo'lib, ovoz berish erkinligi va tengligi qonun bilan himoyalangan. Saylov huquqlari sud orqali himoya etilishi, shikoyatlar berish imkoniyati mavjud. Saylov kodeksi kafolatlari Saylov kodeksi yashirin ovoz berishni ta'minlaydi, saylovchilarning erkinligini nazoratsiz qilishni taqiqlaydi va nogironlar uchun qulay sharoitlar yaratadi. Qamoqxonalar va ijtimoiy xavfi past jinoyatchilarga ham saylov huquqi berilgan, yagona elektron ro'yxat ishlatiladi. Demokratik jarayonlar xususiyatlari Saylovlar ochiq, adolatli va teng huquq asosida o'tadi, xalq irodasini ifodalaydi, xalqaro paktlar bo'yicha so'z erkinligi va ma'lumot olish huquqi himoyalangan. Bu jarayonlar fuqarolarning siyosiy ishtirokini kuchaytirib, demokratik davlat rivojiga xizmat qiladi.

Adabiyot ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (117-128-moddalar) – saylov huquqining konstitutsiyaviy asosi.
2. O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksi (25.06.2019 y., № ZRU-537) – saylov jarayonlarini tartibga soluvchi asosiy hujjat.
3. "Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (05.05.1994 y., № 1051-XII) – huquqlarning maxsus kafolatlari.
4. Qo'shimcha qonunlar va hujjatlar
5. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida"gi Qonun (1991 y., 18-noyabr) – prezident saylovlariga oid. "O'zbekiston Respublikasining referendumlari to'g'risida"gi Qonun – referendum jarayonlari. "O'zbekiston Respublikasida deputatni chaqirib olish tartibi to'g'risida"gi Qonun (1996 y., 26-aprel) – deputat mas'uliyati.